



Xorazm Xalq Sovet Respublikasi davrida agrar sohadagi o'zgarishlar

Matniyozov Sarvarbek San'atbek o'g'li

Ma'mun universiteti yoshlar siyosati

departamenti mutaxassisi.

Tel: +998932813123

E-mail: sarvarbekmatniyozov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada yangi tuzum sharoitida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi hukumati tomonidan mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilgan islohotlar va o'zgarishlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: G.I.Broydo, Ziroat nozirligi, [desyatina](#), ssuda, tanob, Hazorasp, vaqf, "Mehnat nishoni"

Abstract: This article analyzes the reforms and changes implemented by the government of the Khorezm People's Soviet Republic in the agricultural sector, the main sector of the country's economy, under the new regime.

Key words: G.I. Broydo, Ministry of Agriculture, tithe, loan, tanob, Hazorasp, foundation, "Labor Badge"

Аннотация: В данной статье анализируются реформы и изменения, осуществленные правительством Хорезмской Народной Советской Республики в сфере сельского хозяйства, которое является основной отраслью экономики страны, в условиях нового режима.

Ключевые слова: Г.И. Бройдо, Сельхозинспекция, десятина, кредит, таноб, Хазорасп, фонд, "Трудовой знак".



Xorazm vohasida to‘rt asrdan ziyod hukmronlik qilgan Xiva xonligi 1920-yilda xalq inqilobi natijasida ag‘darildi. Monarxiya tuzumiga asoslangan xon hokimiyati tugatildi. 1920-yil 26-30-aprelda Butun Xorazm xalq vakillarining I qurultoyida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligi tantanali ravishda e‘lon qilingan. Yosh respublika hukumati – Nozirlar sho‘rosi tashkil qilinib, uning tarkibi 15 kishidan iborat bo‘lgan. Respublika tomonidan amalga oshirilgan isohotlar natijasida xonlik davrida shakllangan yerga oid an‘anaviy tartiblar o‘zgarishga uchradi.

Xiva xonligi tugatilgach, 1920-yil 7-aprelda bo‘lib o‘tgan Xorazm Inqilobiy Qo‘mitasining kengaytirilgan majlisida nutq so‘zlagan RSFSR hukumatining maxsus vakili G.I.Broydo tuzilajak respublika to‘g‘risida o‘z takliflarini bildirib, xon va uning amaldorlariga tegishli bo‘lgan yerlar va boyliklarni musodora qilish kerakligini ta‘kidlaydi. Shuningdek majlisda qatnashgan o‘zbek va turkman urug‘ boshliqlari, oqsoqollari kelgusida nizolarni oldini olish uchun mehnat bilan harbiy majburiyat teng taqsimlanishiga rozi bo‘ldilar. Buning natijasida “Xorazmlik o‘zbeklar bilan turkmanlarning ko‘p asrlik yonma-yon yashashlari tarixida 1921-yil bahorida birinchi marta ular respublikadagi ariq-kanallarni qazish (tozalash) ishlarida yonma-yon ishtirok etadilar” [1. 485].

Xorazmdagi Muvaqqat inqilobiy hukumat tomonidan “Xonning mulki to‘g‘risida”, “Vaqf yerlarini boshqarish to‘g‘risida” gi dekret(qaror)lar qabul qilindi. “Xonning mulki to‘g‘risida” gi dekretga ko‘ra Xiva xoni, uning qarindosh-urug‘lari va vorislariga qarashli bo‘lgan ko‘chmas mulklar tortib olindi va hukumat ixtiyoriga topshirildi. “Vaqf yerlarini boshqarish to‘g‘risida”gi dekretiga muvofiq dastlab vaqf yerlari tortib olinmadi, biroq vaqf mulkidan keladigan daromad va uni taqsimlash ishlari bilan XXSR Maorif xalq nozirligi shug‘illandi [2. 59-60].

Butunxorazm xalq vakillarining I qurultoyida tashkil qilingan Ziroat nozirligi (Qishloq xo‘jaligi nozirligi) ga yosh respublikada yer-suv ishlari bilan shug‘illanish vazifasi yuklatildi. Ziroat noziri qilib Xakim Bobojonov saylandi [3. 186-187].



“XXSR Ziroat nozirliги dastlab xon va uning amaldorlari, yirik yer egalariga qarashli yer-mulklar, to‘qay va ko‘llar, mehnat qurollari va ish hayvonlari hamda urug‘lik donni musodara qilib, ularni qizil armiya oilalariga, yersiz va kam yerli dehqonlarga taqsimlab berdi. 1920 yil aprel -1921-yil mart oylarida bu nozirlik davlat g‘aznasiga 2 mln so‘m daromad tushirdi”[4. 107].

1920–21-yillarda yersiz va kam yerli dehqonlarga 10 ming [desyatina](#) yer bo‘lib berildi. Bundan tashqari, ularga urug‘, dehqonchilik asboblari hamda [ssuda](#) (qarz) ajratildi. Dehqonlarga kredit hisobidan 5 ming chorva mol sotildi. Eski sug‘orish inshootlarini qayta tiklash bilan birga yangilari ham qurildi. 1922-yil oxirigacha Xorazm dehqonlari [Hazoraspdan Xo‘jayligacha](#) bo‘lgan hududda 12 ta damba (himoya to‘sig‘i) qurdilar. 1922-yilda chorakor va kambag‘allarga yer bo‘lib berish uchun davlat yer fondi tuzishga hamda dehqonlarga uzoq muddatli va qaytarib olinmaydigan ssudalar berish uchun davlat dehqonlar bankini ta‘sis etishga qaror qilindi. Jami hisobda 1921–22-yillarda 400 ming tanobdan ortiqroq yer kambag‘al dehqonlarga berildi [5. 24].

1921-yil butun Xorazm vakillarining ikkinchi qurultoyining chaqirilishi Xorazm vohasining keyingi taraqqiyot yo‘lini ko‘rsatib berdi. Jumladan, qurultoy chiqargan xulosada shunday deyilgan:

“Xorazm respublikasida bundan keyin mehnat qilmasdan ommaning qonini so‘radigan parazitlar bo‘lmasligi kerakki, mamlakat bo‘yicha dekret e‘lon qilinib, yer-uni ishlaydiganlarga berilsin, yerni ijaraga berib kun ko‘ruvchilar yerdan mahrum qilinadi”.

Mazkur fikrlar boy-badavlat qatlam vakillari, katta yer egalariga qarshi qaratilgan bo‘lsa, o‘z navbatida mehnatkash ommaning mehnat faoliyatini kuchaytirib, dehqonchilik sohasida esa katta ijodiy uyg‘onish boshlangan.

Xonlik davrida ekin yerlari hajmi qisqarib, hosildorlik ancha pasayib ketgan edi. Xorazm Xalq Sovet Respublikasi qishloq xo‘jaligida paxta mahsulotlari yetishtirish boshqalarga nisbatan ancha foydali bo‘lib, unga talab ancha katta edi. Paxta hosili



yetishtirishni Xorazmda ko‘paytirishdan RSFSR ham manfaatdor edi. Xorazm dehqonlarini mahalliy sudxo‘rlar ta’siridan qutqarish maqsadida RSFSR hukumati dehqonlarga cheklanmagan miqdorda kredit ajratish bilan birga, ular yetishtirgan paxta hosili uchun qanday haq to‘lanishndan qat’iy nazar, davlatga topshirilgan har bir 50 pud paxta hosili uchun mukofot tariqasida bepul 5 pud paxta urug‘i, 2 ketmon, 80 quti gugurt, 6 pud g‘ildirak moyi, 3 dona kichik charm, 60 pud tuz, 40 pud kerosin, 6 gildirak ip, 90 arshin gazlama bepul beradigan bo‘ldi. Bundan tashqari yana har bir desyatina paxta ekilgan yer maydoni uchun dehqonlarga RSFSR hukumatidan 20 ming rubl (so‘m) miqdorida beg‘araz ssuda beriladigan bo‘ldi [6. 136].

1920-yil 13-sentyabr kuni XXSR bilan RSFSR o‘rtasida imzolangan shartnomaga binoan Chor Rossiyasi davrida Xorazmda vujudga keltirilgan barcha boyliklar mahalliy mehnatkashlarning ixtiyoriga berildi va Xorazm respublikasiga 500 mln. so‘m yordam uyushtirildi. Bulardan tashqari, RSFSR va TASSR Xorazm respublikasini xo‘jalik asboblari, oziq-ovqat, qishloq xo‘jalik qurollari, urug‘lik bilan ta’minlashni o‘z zimmasiga oldilar. Xorazmga yuzlab mutaxassislar ko‘chib kela boshladilar. 1923-yil RSFSR Xorazmga yordamlashish uchun 100 nafar agronom jo‘natadi. Fidokorona halol mehnat qahramonlarini mukofotlash maqsadida 1922-yil fevraldan Xorazm «Mehnat nishoni» ta’sis qilindi. Ammo yangi hayot qurilishi hammaga ham bir xil kayfiyat bermadi. An’anaviy hayot tarziga sodiq bo‘lgan qator kishilar o‘z yo‘lida mahkam turdilar. Ba’zilari yangiliklarga qarshi tashviqot qilishni davom qildiraverdilar.

Xorazmdagi «Известия» ro‘znomasi ana shu davrdagi xalqaro munosabatni ta’riflab o‘zining 1921-yil 31-avgust sonida bunday deb yozgan edi: “Xorazmning iqtisodiy ahvoli hozirgi davrda juda og‘ir, yosh Xorazm respublikasi hozirgi vaqtgacha yer xonavayronligini tuzata olmadi”.

1923-yil 17–20-oktabrda bo‘lgan Butun Xorazm xalq vakillarining 4-qurultoyi Xorazm Xalq Sovet Respublikasini Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi (Xorazm



SSR)ga aylantirish to'g'risida qaror qabul qildi. 20-oktabrda Xorazm SSRning 5 bo'lim va 12 bobdan iborat yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu Konstitutsiya mamlakatning sotsialistik qurilish yo'liga o'tishini qonun yo'li bilan mustahkamladi.

Unga muvofiq, yerning xususiy mulk ekanligi bekor qilindi, vaqf yerlari butunlay tugatildi. Mavjud yerlar umumxalq mulki deb e'lon qilinib, barcha vaqf mulklari maorif nozirligi ixtiyoriga berildi. Vaqf mulklarining madaniyat va maorif nozirligi ixtiyoriga berilishi, dindorlarning noroziligini ancha oshirgan edi. Shu sababdan ham qator dindorlar markaziy shahar Xivadan chekka hududlarga keta boshladilar. Ba'zi dindorlar xalq xokimiyatiga qarshi kurashni davom qildirayotganlar safiga qo'shildilar.

Shu tarzda 1923-yil oktabr oyidan boshlab Xorazm Respublikasidagi demokratik o'zgarishlarga chek qo'yildi.

Xorazm Xalq Sovet respublikasi davrida agrar sohada bir qator tadbirlar amalga oshirilgan bo'lsada, tarmoqda ahvol murakkabligicha qoldi. Sug'oriladigan ekin maydonlarining umumiy hajmi, hosildorligi u «inqilob» dan oldingi darajadan hamon orqada edi. 1920-yillarning boshlarida Xorazmda jami 35 ming chig'ir ishladi. 1923-yildan milliy masalaga e'tibor kuchayib Xiva, Xo'jayli, Toshhovuz viloyatlari vujudga keldi va suv masalasida uch viloyat vakillaridan kengash tuzildi.

1923-yil Xiva shahrida rus davlat banki ochildi va Xorazm dehqonlarining Moskvadagi qishloq xo'jaligi ko'rgazmasiga safari uyushtirildi.

1923-yil noyabr oyida bo'lib o'tgan O'rta Osiyo iqtisodiy kengashining qaroriga binoan Xorazm qishloq xo'jaligi turli mexanizmlar, traktorlar bilan ta'minlana boshladi. 1924-yil bahorida tarixda birinchi marta Xorazmga 2 ta "Parzon" markali traktor olib kelindi va shu yili noyabr oyida Xiva shahrida namoyish qilindi. Traktorni xivalik Sali Matkarimov boshqardi. Sali Matkarimov Xorazmda birinchi mexanizator hisoblanadi [7].

Xorazm Xalq Sovet Respublikasi davrida an'anaviy yer egaligi tartiblari o'zgarishga uchradi. Respublika uzoq vaqt faoliyat ko'rsatmagan bo'lsada agrar sohada bir qancha



isolohotlarni amalga oshirdi. Ushbu jarayonda barcha yerlar umumxalq mulki sifatida e'lon qilinib, aholining katta qismini tashkil qilgan dehqonlarga yerlar bo'lib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O. Masharipov, U. Abdullayev. Xorazmnoma. -T.: «Fan va texnologiyalar nashriyotmatbaa uvi», 2022. 485-b
2. GARF- RF davlat arxivi, 1518-fond, 1-ro'yxat, 715-ish, 56-60-varaqlar.
3. Ражабов Қ. Бухоро ва Хоразм Халқ Республикалари: давлатчиликнинг демократик шакли // Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. –Т.: 2001. –Б.186-187.
4. O'zbekiston Milliy Arxivi, 71-fond, 1-ro'yxat, 4-ish, 107-varaq.
5. Хоразм тарихи. 2-жилд. Масъул муҳаррир М.Матниёзов. – Урганч: Хоразм, 1997
6. И.В. Погорелский. «История Хивинский революции и Хорезмской Народной Советской республика». 1917-1924 гг. Изд ЛГУ, 1984 г. 136 стр.
7. Хорезмская правда, 1974, 7 ноября.
8. Sobirov O.S., Qozoqov E.Q. Xorazm tarixidan lavhalar. – Urganch, “Murabbiy”, 1994.